

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING SUD JARAYONLARINI YORITISHDAGI FAOLIYATI

Komilov Asadbek

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sud jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida yoritishning huquqiy, axloqiy va ijtimoiy jihatlari tahlil qilinadi. Jumladan, jurnalistlarning sud majlislarida ishtiroki, axborot tarqatishda xolislik va obyektivlikni saqlash, shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Sud tizimining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashda OAVning tutgan o'rni, shuningdek, sudning obro'siga putur yetkazmaslik va tergov sirlarini oshkor qilmaslik kabi cheklovlarga ham alohida e'tibor qaratiladi. Mavzuga oid milliy va xalqaro qonunchilik normalari, sud amaliyoti hamda OAV faoliyatining dolzarb jihatlari tahlil asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: sud jarayoni, OAV, jurnalistika, shaffoflik, axborot erkinligi, tergov siri, sudning obro'si, xolislik, inson huquqlari, ommaviy axborot vositalari, sud va matbuot munosabatlari, ochiq sud, yopiq sud, transparentlik.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ ПО ОСВЕЩЕНИЮ СУДЕБНЫХ ПРОЦЕССОВ

Комилов Асадбек

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: В данной статье анализируются правовые, этические и социальные аспекты освещения судебных процессов средствами массовой информации. В частности, рассматриваются участие журналистов в

судебных заседаниях, соблюдение объективности и беспристрастности при распространении информации, обеспечение неприкосновенности частной жизни. Отдельное внимание уделяется роли СМИ в обеспечении открытости и прозрачности судебной системы, а также ограничениям, направленным на недопущение ущерба репутации суда и разглашения следственной тайны. В статье рассматриваются соответствующие нормы национального и международного законодательства, судебная практика и актуальные аспекты деятельности СМИ в данной сфере.

Ключевые слова: *судебный процесс, СМИ, журналистика, прозрачность, свобода информации, тайна следствия, авторитет суда, беспристрастность, права человека, средства массовой информации, взаимоотношения суда и прессы, открытое судебное заседание, закрытое судебное заседание, транспарентность.*

THE ROLE OF MASS MEDIA IN REPORTING ON JUDICIAL PROCEEDINGS

Komilov Asadbek

Master's student of Tashkent State Law University

Abstract: *This article analyzes the legal, ethical, and social aspects of media coverage of court proceedings. It examines issues such as the participation of journalists in court hearings, maintaining impartiality and objectivity in the dissemination of information, and ensuring the protection of personal privacy. Special attention is given to the role of the media in promoting transparency and openness in the judicial system, as well as the limitations aimed at preserving the reputation of the court and preventing the disclosure of investigative secrets. The article also reviews relevant national and international legal norms, judicial*

practices, and pressing issues related to the activities of mass media in this context.

Keywords: *court proceedings, mass media, journalism, transparency, freedom of information, investigative secrecy, judicial reputation, impartiality, human rights, media outlets, court and press relations, open court, closed court, openness.*

KIRISH

Axborot iste'molchilarini qiziqtiradigan axborotlarning ichida huquq sohasi bilan aloqador, ayniqsa sud jarayonlariga taalluqli bo'lgan axborotlar alohida o'rin egallaydi. Boshqa sohalarni yoritishga nisbatan sud jarayonlarini yoritish o'zining murakkabligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jamiyatning "kriminal" ongi shakllanishiga matbuotda zo'rlik, vahshiylik va jinoyat sodir etish usullari haqidagi axborotning noprofessional yoritilishi ham sabab bo'ladi. Bu nihoyatda ahamiyatli kuzatuv. Negaki, mazkur masala nafaqat milliy matbuotshunoslik, balki jahon jurnalistikasi oldida turgan dolzarb ilmiy-nazariy muammolardan biridir. Avvalo, ta'kidlash lozimki, sud jarayonlariga taalluqli bo'lgan axborotlarni har qanday jurnalist osonlikcha qo'lga kiritolmaydi. Chunki turli xil jinoyatlar jamiyat hayotiga, omma xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi bunday axborotlarning zamirida inson taqdiri, u qilgan noqonuniy xatti-harakatlarning har biri qonun doirasida isbot talab etadi. Jurnalist tayyorlaydigan axborot esa huquqiy jihatdan bilimdonlikni, belgilangan milliy va xalqaro me'yorlar doirasidan chiqib ketmaslikni taqozo etadi. Sud jarayonlarini OAVda yoritishning huquqiy asoslari xalqaro va milliy tajribaga ega. Bunda, avvalo auditoriyaning axborotga bo'lgan

ehtiyoji, qiziqishlari hisobga olinadi. Xalqaro miqyosda auditoriyaning axborotga qiziqishi prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-huquqiy doktrinadir. Demokratik jamiyatda matbuot muhim rol o'ynaydi, matbuotga jamoaviy qiziqishni qondiradigan masalalar bo'yicha axborot va g'oyalarni tarqatish vazifasi yuklatiladi. Matbuot erkinligi uncha katta bo'lmagan bo'rttirish hatto ig'voga ham yo'l qo'yishga imkon beradi. So'z erkinligi nafaqat jamiyat uchun ijobiy, zararsiz yoki betaraf bo'lgan axborot va g'oyalarga tegishli, shu bilan birga mazkur erkinlik davlat yoki aholining bir qismiga yoqmaydigan, ularni xafa qiladigan axborotdan iborat bo'lishi ham mumkin. Aks holda matbuot o'zining "qo'riqchi it" yoki jamiyat qiziqtiradigan axborotni tarqatish vazifasini bajarolmaydi. Milliy matbuot amaliyotida amaldagi qonun talablarini bajarishda milliy qadriyatlar va an'analarni milliy o'ziga xoslikdan kelib chiqib yoritishda bo'rttirish yoxud ig'vo qilish oqlanmaydi. Sud jarayonlarini OAVda yoritishning huquqiy asoslari yuqorida aytganimizdek, avvalo xalqaro huquqiy me'yorlarda o'z aksini topadi. Jumladan, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 11-,19-,29-moddalari¹, "Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro paktning 14-, 19-moddalari², "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"ning 13-moddasi³, "Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish bo'yicha Yevropa konvensiyasi"ning 6-,10-moddalari⁴ va boshqa me'yorlarga rioya qiladi.

Sud jarayonlarni yorituvchi jurnalist avvalo faoliyatining huquqiy asosini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi, ayniqsa bu o'rinda xalqaro huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati bilan yaqindan tanishgan bo'lishi juda muhim. Shu o'rinda sud

¹ The Universal Declaration of Human Rights, General Assembly resolution 217 A, 1948.

² International Covenant on Civil and Political Rights, General Assembly resolution 2200A (XXI), 1966.

³ Convention on the Rights of the Child, General Assembly resolution 44/25, 1989.

⁴ European Convention on Human Rights, Rome, 1950.

jarayonlarini matbuotda yoritish yuzasidan jurnalistlarga yordam berish maqsadida Yevropa kengashi tomonidan bir qator me'yoriy hujjatlar tavsiya qilinadi. "Jurnalistik erkinlik va inson huquqlari to'g'risida"gi 2-sonli Rezolyutsiya, "OAV sohasidagi kelajak siyosati to'g'risida"gi Deklaratsiya ana shular jumlasidandir. Bu hujjatlarga ko'ra, jurnalistlar va OAV jinoyat ishlarini ko'rish tizimi faoliyatini erkin yoritishlari va sharhlashlari uchun jurnalistlarga imkoniyat yaratib berishlari lozim. Shuningdek, muayyan sud yakuni bo'yicha chiqarilgan sudning qarorini oshkora olishi va jamoatchilikka yetkazishi mumkin. Sud jarayonlarini OAVda yoritish tamoyillariga ko'ra, bu jarayonlarni yoritish uchun sudga murojaat qilgan OAV vakillariga bir xil munosabatda bo'lishlari va ularni bir xil ko'rishlari kerak. Sudlarning o'zi uchun muhim bo'lgan xalqaro me'yor bu uzoq ko'rilyotgan sud ishi bo'yicha OAV orqali axborot berishlari shartligi belgilangan. Sud jarayonlarini yoritishda OAVga yordam berish bo'yicha alohida ko'rsatma mavjud. Unga ko'ra belgilangan sud majlislari hukm va ayblovlar chiqarish to'g'risidagi e'lonlar, shuningdek sud jarayonlarini yoritishga oid axborotlarni imkon qadar tez og'zaki yoki yozma shaklda berishlari zarurligi belgilangan. "Yevropa konvensiyasi"ning 6-moddasida Yevropa sudida oshkoralikning ta'minlanishi tomonlarni yashirincha ayblanishidan himoya qiladi va jamoatchilik nazoratidan chetda qolib kelayotgan sud jarayonlariga nisbatan ishonchni mumtahkamlashning muhim omili hisoblanadi. Xalqaro huquqiy me'yorlarni mutaxassislar huquqshunoslar yordamida tushunishi va to'g'ri talqin qilishi bu jarayonlarni yoritishning shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Sud jarayonlarini yoritish bo'yicha ham O'zbekiston qonunchiligi xalqaro huquqiy me'yorlarni tan oladi. Umuman axborot va so'z erkinligi, OAV va

jurnalistlar faoliyatini tartibga solishga bag‘ishlangan qonunlarda har qanday axborot bilan ishlaganda avvalo xalqaro me‘yorlarga tayanishni belgilab beradi. Sud jarayonlarini OAVda yoritish jurnalistdan alohida mas’uliyat va ehtiyotkorlikni talab etadi. Buning uchun esa sud jarayonlarini OAVda yoritishning qonuniy asoslarini mustahkam o‘zlashtirish talab etiladi. OAVda sud jarayonlarini yoritishning qonuniy asoslari mamlakatimiz qonunchiligida ham xalqaro huquqiy me‘yorlarga asoslangan holda o‘z ifodasini topgan. Ushbu qonuniy asoslar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasiga ko‘ra, har kim fikrlash, so‘z va e‘tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan cheklashlar bundan mustasno. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo‘lgan taqdirdagina cheklanishi mumkin. Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta‘minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi kerak.⁵ Demak, ushbu modda jurnalistlarning sud jarayonlarida ishtirok etib axborot olishlari nafaqat kasbiy huquqi, balki konstitutsiyaviy huquqi ham hisoblanadi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 137-moddasida sudlarning hamma ishlari ochiq ko‘rilishi belgilangan.⁶ Qonunda belgilangan holatlardagina ishlar yopiq majlisda ko‘rilishi belgilab qo‘yilgan. Demak, ochiq sud jarayonlarini yoritishga kirishayotgan jurnalistning eng asosiy quroli Konstitutsiyaning 33- va 137-moddalari bo‘lib, uni konstitutsiyaviy huquqidan

⁵ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2023 y.

⁶ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2023 y.

mahrum qilgan holda sud zalini tark etishini talab qilishga hech kimning, hatto sudyaning ham haqqi yo'q. Sud ishlarini ko'rish amaliyotida har doim ham sudlarning ochiq majlislarida ishtirok etish ta'minlanmaydi. Chunki "Sudlar to'g'risida"gi qonunga muvofiq jurnalistlarning ochiq sud majlislarida qatnashishlarini ishni ko'rayotgan sud raisi belgilaydi⁷. Aksariyat hollarda maxsus talabnoma bo'lmasa sud jarayonlariga jurnalistlar qo'yilmaslik holatlari milliy tajribada ko'p uchraydi.

Uchinchidan, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini amalga oshirishni tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonunining 5-moddasiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu moddaga ko'ra, jurnalist har qanday ochiq sud majlisida hozir bo'lish huquqiga ega.⁸ Demak, sud jarayonlarida ishtirok etish jurnalistning kasbiy huquqi hisoblanadi. Lekin hamma jurnalistlar ham sud jarayonlarini yoritish salohiyatiga ega emas. Aksariyat hollarda jurnalistlar o'zlari bilmagan holda sud protsesslari bilan bog'liq jarayonlar haqida samarasiz axborot tarqatadilar, jumladan:

huquqiy xatoliklarga yo'l qo'yadilar;

sud jarayonining ijtimoiy mohiyatini ochib berolmaydilar;

jinoyatga jazo muqarrarligini tushuntirish o'rniga, jinoyat tafsilotlarini bayon etishga berilib ketadilar;

jinoyatning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini tahlil etib berolmaydilar.

Bu avvalo jurnalistlarning huquqiy savodxonligi va ixtisoslashuvi bilan bog'liq masala bo'lib, sohaga qiziqadigan jurnalistlarning ko'p jihatdan huquqiy bilimlarni

⁷ O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonuni // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 2021.

⁸ O'zbekiston Respublikasining "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 1997.

yaxshi o'zlashtirishlarini taqozo etadi. Qolaversa, adolat va xolislik mezoni mazkur yo'nalishda ixtisoslashgan jurnalistlar faoliyatining yuksak-mayog'i bo'lib qolishi kerak.

Sud jarayonlarining ochiq majlislarida ishtirok etish jurnalistning kasbiy huquqi dedik. Bu huquqning kafolati amaliyotda qanday ta'minlanganini bilishdan avval ochiq va yopiq sud majlislari degan tushunchalarning mazmun-mohiyatiga aniqlik kiritib olsak.

Avvalo jinoyat ishlari bo'yicha sudlov Jinoyat-protsessual kodeksi (JPK) bilan tartibga solinadi. Sud jarayonlari ikki xil ko'rinishda o'tkaziladi:

1. Ochiq sud jarayoni;
2. Yopiq sud jarayoni.

Sudda ishlarning oshkora ko'rilishi deganda shunday sud protsessi nazarda tutiladiki, unda ishlar qonunda belgilangan yoshda bo'lgan va sud zaliga kelishni istagan fuqarolar ishtirokida ko'riladi, protsessning borishi va natijalari matbuotda erkin e'lon qilinishi, radioda eshittirilishi yoki boshqa vositalar yordamida keng ommaga yetkazilishi mumkin. Ishlarni ochiq yoki yopiq sud majlisida ko'rish hamda sudlov faoliyatida oshkoralikni kengaytirish tartibi JPKning 19-moddasida belgilangan.⁹ Mazkur moddaga ko'ra, barcha sudlarda (davlat sirlarini qo'riqlash manfaatlariga zid keladigan, shuningdek jinsiy jinoyatlar to'g'risidagi ishlar ko'riladigan hollarni istisno qilganda) jinoyat ishlari oshkora ko'riladi. Bundan tashqari, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning jinoyatlari to'g'risidagi ishlarni, shuningdek fuqarolarning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni yoki ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik

⁹ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

maqsadida jabrlanuvchining, guvohning yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning, xuddi shuningdek ularning oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash taqozo etgan hollarda boshqa ishlarni ham sud tomonidan ajrim chiqarib, yopiq sud majlisida ko'rishga yo'l qo'yiladi. Shaxsiy yozishma va shaxsiy telegraf xabarnomalari ochiq sud majlisida faqat bu xat va xabarlarni jo'natgan shaxslarning roziligi bilan oshkor qilinishi mumkin. Aks holda ular yopiq sud majlisida o'qib eshittiriladi va tekshiriladi. Bunday hollarda ham sud o'zining ajrimini chiqarishi shart. Demak, sud to'laligicha yoki qisman yopiq o'tkazilishi mumkin. Sud jarayonini yoritish uchun kelgan jurnalistlar yopiq sud majlisida ishtirok etish huquqiga ega emaslar. Nima uchun jurnalistlarning yopiq sud majlisida ishtirok etmasligiga aniqlik kiritish uchun yopiq sudlovda qanday ishlar ko'rilishiga aniqlik kiritish zarur bo'ladi. Jurnalist yopiq sud majlisida qatnashishga yo'l qo'yilmasa ham, u ishning yopiq majlisda ko'rilishi asoslantirilgan ajrim bilan tanishishga haqlidir, deb hisoblaydi. Chunki Jinoyat-protsessual kodeksining 19-moddasiga ko'ra ajrim oshkora qilinishi shart bo'lgan sud hujjatidir. Bundan tashqari sudlovning oshkoraligi odil sudlovning bosh tamoyillaridan biri bo'lib, jurnalistlar va sudyalarning munosabatini yaxshilashga va rivojlanishiga turtki beradi. Ushbu moddada "Sud zalida ovozlarni yozib olish, fotosuratga, videoyozuvga va kinotasvirga olishga faqat sud majlisida raislik qiluvchining ruxsati bilan yo'l qo'yiladi, bu haqda tegishli ajrim chiqariladi" deyilgan. Demak, OAV xodimlari sud zalida turli xil texnik vositalardan foydalanishlari uchun sudning ruxsatini olishlari shart.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 19-moddasida belgilanganidek, sudlar faoliyatida oshkoralikni kengaytirish uchun zarur hollarda sudlar ommaviy axborot

vositalari xodimlariga, tegishli jamoat birlashmalari va jamoalarga bo'ladigan protsesslar to'g'risida xabar berishi, shuningdek ochiq sud majlistlarini bevosita korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda sayyor sud majlisi tartibida o'tkazishi mumkin. Sud faoliyatiga oid ma'lumotlardan ommaviy axborot vositalari vakillarining erkin foydalanishi demokratik jamiyatning dolzarb masalalaridan biri. Shu bois demokratiya qaror topgan ilg'or davlatlarda sudlar transparentligiga alohida e'tibor qaratiladi.

“Transparentlik” umumjahon huquqiy atamashunosligida odil sudlovning ochiqligi, oshkoraligi va ommaviyligi ma'nosini anglatadi. Sudlarning transparentligi esa shunchaki istak emas, balki xalqaro hujjatlarda belgilangan talabdir. Bu vazifani faqat OAV orqali amalga oshirish mumkin. Mamlakat qonunchiligida jurnalistlarning sud protsessida ishtiroki masalalari umumiy tartibga solingan. Masalan, sud jarayonlarida umumiy ishtirokchilik (ommaning sud zaliga kirish uchun ochiqligi) maxsus (OAV xodimlari, sharhlovchilar), kasbiy (jarayon bilan kasbiga ko'ra qiziquvchi olim, talaba, ruhshunos tibbiyot xodimi) ishtirokchilar ajratilmagan. OAV xodimlarining sud majlislarida ishtiroki umumiy ko'rinishda me'yorlangan. Shuningdek, qonunchilikda sud qarorini tayyorlash va tomonlarga taqdim etish tartibi bayon qilingan.

Biroq sudda ommaviy axborot vositalari vakillarining huquq va majburiyatlari tartibga solinmagani bu boradagi oshkoralikni sustlashtiradi. Amaldagi protsessual qonunchilik OAV vakillarini ish hujjatlari bilan tanishish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasiga kiritmaydi, ya'ni sudya OAV vakillarini protsessga qo'yishi yoki qo'ymasligi mumkin. Qo'ygan taqdirda ham, ularning harakatlarini cheklash huquqiga ega (Audio yoki video tasmaga tushirmaslik va h.k.). Bu esa O'zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasining 137-moddasi hamda “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunining 5-moddasiga zid keladi. Bunday holat qonun hujjatlarida jiddiy ziddiyatlar borligini ko‘rsatadi. Fuqarolik protsessual kodeksida esa bunday modda yo‘q.

Amaldagi OAV faoliyatiga doir qonunchilik jurnalistga axborotni izlash, olish va tarqatish huquqini beradi. Ammo u tergovchi, prokuror yoki sudyadan farqli o‘laroq, o‘z manbayidan axborotni talab qilib olishga, biron-bir protsessual harakatlar o‘tkazishga haqli emas. Jurnalist tekshiruvini prokuror yoki tergovchining surishtiruvidan farqlay olish lozim. Gap jurnalistning o‘zini qiziqtirgan fakt yoki hodisani chuqur tahlil va tadqiq qilishi hamda har tomonlama isbotlangan maqola yozishi, chop etishi, umuman, tarqatishi xususida ketmoqda. Bu harakatlar jurnalistga qonunchilik tomonidan berilgan huquq va majburiyatlar hamda jurnalistning so‘z erkinligi mas’uliyati doirasida olib borilishi lozim. Jurnalist tomonidan sud jarayonlarining yoritilishi, avvalo, aybsizlik prezumpsiyasiga amal qilish, fuqarolarning sha’ni, qadr-qimmatini va obro‘sinini muhofazalash, sudyalarning mustaqilligini ta’minlash zarurligi bilan chegaralangan o‘ziga xos xususiyatga ega.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 327-moddasiga asosan “Muayyan jinoyat to‘g‘risida matbuot, radio va televideniye, hujjatli kinofilmlardagi, shuningdek ommaviy axborot vositalariga yo‘llangan, lekin e’lon qilinmagan xatlardagi xabarlar jinoyat ishini qo‘zg‘atishga sabab bo‘ladi.

Jinoyat to‘g‘risidagi xabarni e’lon qilgan yoki tegishli joylarga yuborgan ommaviy axborot vositalari, shuningdek bu xabar mualliflari surishtiruvchi,

tergovchi, prokuror yoki sudning talabiga asosan o'z ixtiyorlarida bo'lgan hujjatlarni va xabarni tasdiqlovchi boshqa materiallarni taqdim qilishlari shart".¹⁰

Sudlar xalqaro huquqqa, Konstitutsiyaga va qonunlarga rioya qilish barobarida bu sohada O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2020-yil 21-fevralda tasdiqlangan "Sud muhokamasi oshkoraligini va sudlar faoliyatiga doir axborot olish huquqini ta'minlash to'g'risida"¹¹gi qaroriga bo'ysunishlari lozim.

Sud muhokamasi oshkoraligi, sudlar faoliyati to'g'risida jamoatchilikka o'z vaqtida va obyektiv axborot berish jamiyatda huquqiy xabardorlik darajasi oshishiga imkon yaratadi, odil sudlovni amalga oshirishning muhim kafolati hisoblanadi, sudlov faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash va sudga nisbatan jamiyat ishonchini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. Shu munosabat bilan sudlar sud muhokamasi oshkoraligi va sudlar faoliyatiga doir axborotni olish huquqini amalga oshirish uchun zarur sharoit yaratishlari lozim. Sud muhokamasi oshkoraligini, fuqarolar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari vakillarining sudlar faoliyatiga doir axborotdan xabardorligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Sudlar to'g'risida"gi, "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi, "Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi to'g'risida"gi "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"¹²gi, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunlariga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, tegishlicha,

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 2020.

¹² O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuni // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 2018.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Sudlar faoliyatiga doir axborotni olish huquqini kelib chiqishi, fuqarolarning tili, jinsi, irqi, milliy mansubligi, diniy, ijtimoiy e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyiga qarab cheklashga yo'l qo'yilmaydi.

Oliy sudning ko'rilayotgan ish bo'yicha jurnalistning intervyu olishi borasidagi qaroriga ko'ra, sudya sud qarori qonuniy kuchga kirmagan ish bo'yicha intervyu berishga yoxud ommaviy axborot vositalarida chiqish qilishga haqli emas. Sud muhokamasi oshkoraligi protsess ishtirokchisi bo'lmagan shaxslarga, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari vakillariga sud majlisida qatnashish imkoniyati berilishi bilan ta'minlanadi. Ochiq sud majlislarini protsess ishtirokchisi bo'lmagan shaxslar qatnashishini istisno etadigan binolarda o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. Ochiq sud majlisiga jurnalistlarni kiritmaslik mumkin emas. Ommaviy axborot vositalari vakillarining ochiq sud majlisida ish bo'yicha ma'lumotlar olish maqsadida qatnashishi ma'lumot olishning qonuniy yo'li ekanini inobatga olib, ularning qonunda nazarda tutilmagan asoslarga ko'ra sud majlisi zaliga kirishiga to'sqinlik qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Sudda ish muhokamasi to'liq yoki qisman yopiq sud majlisida o'tkazilishiga faqat qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, yo'l qo'yiladi. Bu asoslar faqat FPK 12-moddasi ikkinchi qismi¹³, JPK 19-moddasi birinchi, uchinchi, to'rtinchi,

¹³ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

bashinchi qismlari¹⁴, IPK 11-moddasi ikkinchi qismi¹⁵, MSIYUTK 13-moddasi ikkinchi qismida¹⁶ ko‘zda tutilgan.

Ish muhokamasini yopiq sud majlisida o‘tkazish to‘g‘risida sud asoslantirilgan ajrim chiqaradi va unda protsess ishtirokchilari bo‘lmagan shaxslarning, ommaviy axborot vositalari vakillarining sud majlisi zaliga erkin kirishiga to‘sqinlik qiladigan aniq holatlar ko‘rsatilishi kerak.

Ish yopiq sud majlisida muhokama qilinishi to‘g‘risidagi ma’lumot hamma uchun ochiq bo‘lishi lozim.

Ish muhokamasi yopiq sud majlisida o‘tkazilishi haqida sud majlisi bayonnomasida va ish bo‘yicha qabul qilingan sud hujjatining kirish qismida ham ko‘rsatiladi.

Ish muhokamasi yopiq sud majlisida o‘tkazilishi to‘g‘risidagi ajrim e’lon qilingunga qadar protsess ishtirokchilari bo‘lmagan shaxslar, ommaviy axborot vositalari vakillari sud majlisi zalidan chetlashtirilishi mumkin emas. Ish muhokamasi yopiq sud majlisida o‘tkazilishi to‘g‘risidagi qaror ishni sud muhokamasiga tayinlash chog‘ida qabul qilingan hollarda, protsess ishtirokchilari bo‘lmagan shaxslar, ommaviy axborot vositalari vakillari boshidanoq sud majlisi zaliga kiritilmaydi.

Ish muhokamasini yopiq sud majlisida o‘tkazish haqidagi ajrim e’lon qilinganidan so‘ng protsess ishtirokchilari bo‘lmagan shaxslar, ommaviy axborot vositalari vakillari sud majlisi zalidan chetlashtirilib, bu haqda sud majlisi bayonnomasida qayd etiladi.

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

Agar sud tomonidan jinoyat ishining muayyan qismi yopiq sud majlisida muhokama qilinishi to'g'risida qaror qabul qilinsa, protsess ishtirokchisi bo'lmagan shaxslar, ommaviy axborot vositalari vakillari sud majlisining shu qismiga kiritilmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

Mavzu doirasida milliy va xalqaro huquqiy manbalar, ilmiy maqolalar hamda jurnalistik faoliyatga oid tahliliy adabiyotlar o'rganildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining OAV va sud tizimiga oid qonunlari, inson huquqlari bo'yicha xalqaro me'yorlar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida normativ-huquqiy tahlil va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. Bu esa sud jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida yoritishning dolzarb jihatlarini aniqlash va ularni huquqiy mezonlar asosida baholash imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ / RESULTS AND DISCUSSION)

Tadqiqot natijalariga ko'ra, sud jarayonlarini OAVda yoritish fuqarolarning axborot olish huquqini ta'minlash, sud tizimining ochiqligi va jamoatchilik ishonchini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Biroq bu jarayon jurnalistlar tomonidan qonuniylik, xolislik, tergov siri va shaxsiy hayot daxlsizligiga rioya qilingan holda amalga oshirilishi zarur. Muhokamalar davomida aniqlanishicha, amaldagi huquqiy me'yorlar OAV faoliyatini belgilab bersa-da, ularni tatbiq etishda muvozanatli yondashuv va amaliy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarur. Xorijiy tajribani o'rganish esa mazkur sohada milliy tizimni rivojlantirish uchun muhim yo'nalishlarni belgilashga yordam beradi.

XULOSA

Sud jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida yoritish – bu nafaqat axborot berish, balki jamoatchilikni huquqiy ong va madaniyatga yo‘naltirish vositasidir. Biroq bu jarayonda jurnalistlar qonuniylik, xolislik va inson huquqlariga hurmat tamoyillariga qat’iy rioya qilishi lozim. OAV faoliyati sud tizimining ochiqligi va shaffofligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi, biroq tergov sirini fosh etmaslik, sudning obro‘cini himoya qilish va shaxsiy hayotni e’zozlash kabi cheklovlar doirasida amalga oshirilishi zarur. Shu bois, ushbu sohada milliy va xalqaro me’yoriy hujjatlarga asoslangan muvozanatli yondashuv zarur bo‘ladi.

FOYDALANILGAN AABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2023 y.
2. The Universal Declaration of Human Rights, General Assembly resolution 217 A, 1948.
3. International Covenant on Civil and Political Rights, General Assembly resolution 2200A (XXI), 1966.
4. Convention on the Rights of the Child, General Assembly resolution 44/25, 1989.
5. European Convention on Human Rights, Rome, 1950.\
6. O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi qonuni // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 2021.

7. O'zbekiston Respublikasining "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 1997.
8. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 2020.
10. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuni // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 2018.
11. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
12. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
13. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.